

TA'SIRI

Shernazarov Ravshan Avazovich

Navoiy davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Navoiy, O'zbekiston

Annotatsiya: *Ushbu maqola siyosiy e'tiqodlarning siyosiy va tarbiyaviy jarayonlarga ta'siri, shaxsning siyosiy e'tiqodlari siyosiy faoliyat va davlat boshqaruvida qanday muhim rol o'ynashi o'rganilgan. Shuningdek, siyosiy e'tiqodlarning siyosiy faollik, jamiyatdagi ijtimoiy mas'uliyat va davlat boshqaruviga ta'siri keng ko'lamda ko'rib chiqilib, ularning yoshlarni siyosiy ongli va mas'uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalashdagi o'rni tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *siyosiy e'tiqod, jamiyat, mas'uliyat, tarbiya, axloq, taraqqiyot, barqarorlik, ma'naviyat, siyosat.*

Siyosiy e'tiqodning tarbiyaviy ta'siri bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy hayotida muhim ahamiyatga ega. Siyosiy e'tiqod, bu shaxsning siyosiy hayotdagi ishtiroki, qarashlari va qadriyatlari shakllanishiga ta'sir qiluvchi omil sifatida o'z o'rniga ega. Jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti ko'p jihatdan uning a'zolari orasida shakllangan siyosiy e'tiqodlar bilan belgilanadi. Siyosiy e'tiqodning tarbiyaviy ta'siri esa, shaxsning siyosiy ongi va faoliyatini rivojlantirish, uning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishga yo'naltirishda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, siyosiy e'tiqodning tarbiyaviy ta'siri qanday amalga oshirilishi, bu jarayonning jamiyat va davlat rivojlanishiga qanday hissa qo'shishi, shuningdek, yosh avlodni siyosiy ongli va faol fuqarolar sifatida tarbiyalashdagi roli tahlil qilinadi. Siyosiy e'tiqodning shakllanishi va rivojlanishi shaxsning ijtimoiy hayotdagi pozitsiyasini mustahkamlash, uning huquqiy ongini yuksaltirish va ijtimoiy mas'uliyatini oshirish orqali amalga oshiriladi. Shu tariqa, siyosiy

e'tiqodning tarbiyaviy ta'siri jamiyatning umumiy taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Hokimiyat va boshqaruvga oid kechinmalarni maqbullashtirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sir qator muhim vazifalarni bajaradi. Jumladan, uning vositasida jamiyat a'zolari yetuk fuqaro sifatida voyaga yetkaziladi, siyosiy dunyoqarashi qaror toptiriladi. Tarbiyaviy ta'sir davomida insonning xalq hokimiyatchiligi haqidagi tasavvurlari kengaytiriladi, uning huquqqa doir xulosa va mulohazalariga tizimli tus beriladi. Tarbiyaviy ta'sir orqali jamiyat a'zosi mas'uliyat va burchni chuqur his eta oladigan asl Vatan farzandi sifatida kamol toptiriladi. Uning vositasida kishilar siyosiy masalalarda o'zgalar bilan muloqotga kirishishga tayyorlanadi, bunday muloqotlarni mavjud muammolarni bartaraf etishga safarbar qilish ko'nikmasi shakllantiriladi. Tabiiyki, mazkur vazifalar tarkibi zamonaning dolzarb muammolari kun tartibiga qo'yayotgan vazifalar hisobidan o'zgarib va takomillashib boraveradi. Buning ustiga, davr taqozosi bilan ularning ayrimlari o'ta dolzarb tus olishi, boshqalari esa o'zining birlamchi ahamiyatini vaqtincha yo'qotishi ham mumkin.

Hokimiyat va boshqaruvga oid kechinmalarni maqbullashtirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sir ijtimoiy tarbiyaning turli shakllari va yo'nalishlari kabi ko'plab shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Masalan, siyosiy munozaralar va debatlar, siyosiy targ'ibot va tashviqot, siyosiy kampaniyalarda ishtirok, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga jalb etish va shu kabilar kishilarda turli bilimlarni chuqur o'zlashtirish, balki ularni amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini ham beradi. Buning uchun tarbiyaviy ta'sir turli shakllarda amalga oshirilmog'i lozim. Bu shakllar jamiyatda hukm surayotgan vaziyat, erishilishi niyat qilingan maqsad, kun tartibida turgan vazfiyalarga monand tanlanadi. Vaziyat taqozosi bilan ta'sir shakllari ham o'zgartirib boriladi [1].

Tarbiyaviy ta'sirning samarasini ta'minlashga qodir bo'lgan uslublar, tamoyillar ham talaygina. Buni mutaxassislar ham o'z ilmiy ishlarida qayd qilib o'tadilar. Jumladan, mazkur ilmiy ishlardan birida shunday deyiladi: "Siyosiy tarbiyaning turli uslub va prinsiplar asosida amalga oshirilishi unga maqsadli,

sistemali xarakter ato etadi. Bunda, eng avvalo, tushuntirish, ishontirish va majbur qilish uslublaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Shuningdek, siyosiy tarbiya qator prinsiplarga tayanmog'i darkor. Zotan, O'zbekistonda siyosiy yetuk shaxsni shakllantirish maqsadida amalga oshirilgan siyosiy tarbiya, eng avvalo, davlat siyosati bilan bog'liq bo'lishi, insonparvarlik g'oyalariga asoslanishi, shaxs hayotiy pozitsiyasini shakllantirishi va uni siyosiy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan bo'lishi, uning siyosiy faolligini oshira borishi lozim. Ushbu prinsiplar ijtimoiy munosabatlarning xarakteri bilan shartlangan bo'lib, shaxsdagi ma'lum qarashlarni e'tiqodga aylantirish imkonini beradi" [2]. Albatta, mazkur uslub va tamoyillar vaqt o'tishi bilan to'lishib, mazmunan boyib boraveradi. Maqbul kechinmalarni yuzaga keltirish uchun uslublar to'g'ri tanlanmog'i, oqilona tamoyillarga asoslanilmog'i shart. Tanlovdagi xatolik ko'zlangan maqsadlarga erishishni qiyinlashtiradi. Ularning mudom va asossiz ravishda o'zgartirilaverilishi ham tarbiyani besamar va bexosiyat jarayonga aylantiradi.

Hokimiyat va boshqaruvga oid kechinmalarni maqbullashtirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sir tarbiyaning turli shakllari bilan uyg'un va aloqador ravishda amalga oshiriladi. Tarbiyaning barcha shakllari ma'lum maqsadga intiladi va aniq vazifalarni hal qilishga yo'naltirilgan bo'ladi. Biroq ushbu vazifalarning ayrimlari e'tiqodni shakllantirish bilan bog'liq maqsadlarga ham xizmat qilishi mumkin. Boshqa tomondan esa, hokimiyat va boshqaruvga oid kechinmalarni maqbullashtirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sir imkoniyatlaridan tarbiyaning boshqa shakllarini yo'lga qo'yish chog'ida ham foydalanish mumkin [2].

Jumladan, aqliy tarbiya tarbiyalanuvchini voqealar oqimini xolis tahlil qilishga tayyorlaydi. Bu ko'nikmani shakllantirish uchun nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarga murojaat qilinadi, balki siyosat olamiga taalluqli voqealarga ham e'tibor beriladi. Ana shu nuqtada e'tiqodni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy ta'sir o'z ifodasini topadi. Axloqiy tarbiya shaxs axloqiy fazilatlarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Shuning bilan birga uning davomida inson o'z siyosiy qarashlari va faoliyatini ham axloqiy mezonlar bilan o'lchashga

odatlantiriladi. Huquqiy tarbiya shaxsning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishni maqsad qiladi. Buning bilan uyg'un ravishda huquqiy-tarbiyaviy ishlar mobaynida shaxsning siyosiy jarayonlar bilan bog'liq huquqiy qadriyatlari ham qaror toptiriladi.

Mutaxassislar hokimiyat va boshqaruvga oid kechinmalarni maqbullashtirishga yo'naltirilgan tarbiyaviy ta'sir bilan mehnat tarbiyasi o'rtasidagi aloqadorlikka alohida e'tibor beradilar. Shu o'rinda A.S. Makarenkoning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish o'rinlidir: "Insonni qanchalar mehnat qilishga majburlamang, ayni paytda u siyosiy va axloqiy jihatdan tarbiyalanib bormas ekan, ijtimoiy-siyosiy hayotga ishtirok etmas ekan, bu mehnat ijobiy natijalarga olib kelmaydigan neytral jarayon bo'lib qolaveradi. Tarbiya vositasi bo'lmish mehnat umumiy sistemaning bir qismi sifatidagina foydalidir" [3]. Binobarin, mehnat tarbiyasi davomida shaxsning nafaqat mehnat fazilatlarini va qadriyatlari shakllantirilmog'i, balki o'z mehnati bilan jamiyat manfaatlariga xizmat qilish istagi ham qaror toptirilmog'i darkor.

Xulosa qilin aytganda, siyosiy e'tiqodning siyosiy-tarbiyaviy ta'siri shaxsning siyosiy e'tiqodlarining siyosiy faoliyat va tarbiya jarayonlaridagi muhim rolini ochib berdi. Siyosiy e'tiqodlar shaxsning siyosiy qarashlari, qadriyatlari va jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq bo'lib, ularning shakllanishi va rivojlanishi tarbiyaviy jarayonlar orqali amalga oshiriladi. Siyosiy e'tiqodlarning siyosiy faollikka va davlat boshqaruviga ta'siri, shaxsiy rivojlanish va jamiyatdagi ijtimoiy mas'uliyatni oshirish uchun katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Oliver Traldi. Political Beliefs A Philosophical Introduction. -Routledge: 2024. -p.25.
2. Choriyev A. Inson falsafasi. Ijtimoiy tarbiya. Uchinchi kitob. -Qarshi: Ilm-fan-ma'naviyat, 2024. -B.78-79.
3. Макаренко А.С. Собрание сочинений. -М.: 1958. Т.7. -С.116.

4. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.